

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA REFLEKSIV POZITSIYANI
RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI**

TerDPI o'qituvchisi M Xurramova

Annotatsiya: Ushbu maqolada Bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv pozitsiyani rivojlantirish funksiyalari, bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv pozitsiyani rivojlantirish mazkur jarayonga xos psixologik-pedagogik xususiyatlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zar: refleksiya, o'quv faoliyati, pozitsiya, kasbiy faoliyat.

Yoshlar uchun jamiyatda o'z o'rnini topish, boshqalar bilan yangi munosabatlarni o'rnatish, hayot mazmuni, o'z taqdiri bilan bog'liq bo'lgan hayajonli, biroq mavhum kechinmalarni tushunish muhimdir. Bu barcha masalalar ekzistensial xusiyatga ega bo'lib, xuddi ana shu asosdan ma'naviy-axloqiy muammolar, o'z-o'zini anglash va tushunishga qiziqish kelib chiqadi. Ajoyib ichki dunyo shakllanadi, axloqiy mezonlarni qabul qilish yoki rad etish yuz beradi, axloqiy refleksiya barcha jarayonlarni diqqat bilan kuzatib boradi. Bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv pozitsiyani rivojlantirish mazkur jarayonning psixologik-pedagogik xususiyatlariga aniqlik kiritishni taqozo etadi.

Refleksiyani o'rganishning umumiy yaxlit konsepsiyasi ham, uni tadqiq etishda yagona yondashuv ham mavjud emas. Zamonaviy fanda refleksiyani o'rganishning o'n bitta yo'nalishini ajratib ko'rsatish mumkin: faoliyatli, tafakkur psixologiyasi kontekstida refleksiyani o'rganish, kommunikativ jarayonlarni tashkil etishning refleksiv qonuniyatlarini o'rganish, hamkorlikdagi faoliyat tarkibida refleksiv fenomenlarni tahlil qilish, pedagogik yo'nalish, shaxsiyatli yo'nalish, genetik yo'nalish, "tizimli fikriy faoliyatli" yondashuv, refleksiv jarayonlarni tadqiq paradigma, refleksiyani o'zini o'zi bilish va o'zini o'zi tushunishning fundamental mexanizmi sifatida o'rganish va nihoyat, boshqaruv faoliyatining refleksiv qonuniyatlari va boshqaruv faoliyati mexanizmi sifatida tadqiq etishdan iborat.

Bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv pozitsiyani rivojlantirish funksiyalari

Yo'naltiruvchi: Shaxsiy-kasbiy o'z-o'zini baholash; innovatsion salohiyatga egalik; bo'lajak kasbiy faoliyatga ijobiy munosabat; bolalarga kasbiy yo'naltirilgan faoliyat ob'ekti, sub'ekti sifatida qarash; "Pedagogika" fanini o'zlashtirishga yetarli darajada qiziqish.

Axborot: Kasbiy faoliyat bilan bog'liq bilimlar; bolalarning yosh va psixologik xususiyatlari hamda o'quvchilar bilan o'zaro pedagogic munosabatlarga kirishish usullarini bilish; bo'lajak o'qituvchining "Pedagogika" fani bo'yicha bilimlarni egallaganlik darajasi.

Amaliy: Kasbiy ahamiyatli sifatlarni aniqlash va qo'llash qobiliyati; o'quv jarayonini mustaqil tashkil etish qobiliyati; o'quv faoliyatini nazorat qilish va baholash qobiliyati; shaxslararo munosabatlarni o'rnatish va kasbiy yo'naltirilgan o'quv faoliyati jarayonida ijobiy pedagogik munosabatni ta'minlash; pedagogic bilimlarni qo'llay olish qobiliyati.

Bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish bilan bog'liqlikda refleksiyaning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1 Kooperativ refleksiya psixologiyasiga taalluqli, shuningdek, sport va loyihalashni nazarda tutadi. Bunday refleksiya turida zarur pedagogik-psixologik bilimlarga ega bo'lish jamoaning loyihaviy faoliyatini ta'minlaydi va ularning faoliyatini birlashtirishda ularning birgalikdagi faoliyatini ta'minlaydi. Bunda refleksiyani subyektini hisoblanadi. Buning maqsadi harakatlarni tushunish va muvofiqlashtirishni ta'minlashdir. Bunday hollarda, inson psixikasi mexanizmini namoyon qilish jarayonlariga emas, balki refleksiya natijalariga e'tibor qaratiladi.

2 Kommunikativ refleksiya muammolari bilan bog'liq ijtimoiy-madaniy munosabatlarni o'rganishda ko'rib chiqiladi. U intellektual va rivojlangan muloqot, shuningdek shaxslararo hissiyotlarning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

3 Shaxs refleksiya subyekt xatti-harakati va insonning o'z "Men"ini uning shaxsiy sifatlari nuqtai nazaridan tadqiq qilinadi. Bunday tahlil shaxsiy ongni rivojlantirish, parchalanish va tuzatish muammolari va subyektning shaxsiy "Men"ini yaratish mexanizmi bilan bog'lab olib boriladi. Shaxsiy refleksiya amalga oshirishning bir necha bosqichlari mavjud. Bu ziddiyatlarni boshdan kechirish va qo'yilgan vazifalarni anglash hamda inson oldida turgan hal qilib bo'lmaydigan vaziyatlarni tushunish tajribasi, shaxs stereotiplari va faoliyatlari, ularning diskreditatsiyasidir. Bunda ziddiyat va muammo bo'lgan shaxs stereotiplari va vaziyatlar tushuniladi. Bunday vaziyatda shaxs o'zini o'zi to'liq anglab yetadi. Qayta fikrlab ko'rish jarayonida insonning o'ziga va o'z "Men"iga munosabati o'zgaradi. U shunga mos harakatlarda amalga oshiriladi. Ikkinchidan, subyektning o'zi bajara oladigan va biladigan munosabatlarini o'zgarishi bilan yuz beradi.

Intellectual refleksiya biror obyekt va u bilan muloqot qilish usullari haqidagi bilimlar bilan tavsiflanadi. Intellectual refleksiya pedagogika va psixologiya fanlarida axborotni bilish va fikrlash hamda qayta ishlash jarayonlarini tashkil etish muammolari bilan birgalikda ko'rib chiqiladi. Shuningdek, oddiy muammolarni hal qilishda ko'rib chiqiladi. Subyekt quyidagilarni refleksiyalashi jamoaviy tashkilotlar va ularning tuzilmaviy ahamiyatini bilish; boshqa odamning ichki dunyosini, uning harakatlari va ishlarining sabablarini tasavvur qilish; o'z faoliyati va shaxsiy hamda individual "Men"i; biror obyektini va ularning muayyan vaziyatlarda o'zaro ta'sir etish usullari haqida bilish.

Bo'lajak yo'nalishlarini qondirish va rivojlantirishga imkon beradigan axborot funksiyasini bajaradigan reflektiv pozitsiyaning kognitiv komponenti bo'lajak o'qituvchining shaxsiy va kasbiy xususiyatlari, qobiliyatlari, ehtiyojlari, holatlari va imkoniyatlari to'g'risidagi reflektiv bilimlar tizimini o'z faoliyatning har bir o'ziga xos holatida alohida dolzarblik kasb etadi: bo'lajak o'qituvchining kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan bog'liq bilimlar; ma'lum bir yosh guruhidagi bolalar rivojlanishining psixologik xususiyatlari va o'quvchilar bilan pedagogik o'zaro munosabatlariga mos usullarni qo'llay bilish; bo'lajak o'qituvchining "Pedagogika" fani bo'yicha bilimlarni egallaganlik darajasi. Bo'lajak o'qituvchining reflektiv pozitsiyasi tuzilmasidagi kognitiv komponentning tarkib topishi quyidagilar bilan ajralib turishi mumkin:

- bo'lajak o'qituvchining kelajakdagi faoliyati uchun zarur bo'lgan o'zining kasbiy ahamiyatli shaxsiy sifatlarini taqqoslash, tushunish va farqlarini anglash orqali tahliliy va tashkiliy qobiliyati, ehtiyojlari, xolatlari va imkoniyatlarini munosib baholash to'g'risida xabardorligi;

- bo'lajak o'qituvchining kasbiy vaziyatda oqilona yo'l tutish, o'quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etish usullari to'g'risida ma'lumotga egaligi;

- barcha yoshdagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari hamda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi maxsus tashkil etilgan muloqot sifatida tegishli pedagogik munosabatdan xabardorligi. Amaliy funksiyani bajaradigan faoliyatli komponent quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- kasbiy yo'naltirilgan o'quv faoliyatini amalga oshirish uchun bo'lajak o'qituvchining shaxsiy kasbiy-ahamiyatli sifatlari, qobiliyat, ehtiyoj va imkoniyatlaridan ongli foydalanishi;

- kelajakdagi yo'naltirilgan o'quv faoliyatini mustaqil tarzda tashkil etish usullarini ongli ravishda tanlash;

- bo'lajak o'qituvchining bolalar bilan psixologik jihatdan yetarli darajada shaxslararo va pedagogik munosabati;

- pedagogika fanini uning o'ziga hosligini hisobga olgan holda, boshqa o'quv fanlari bilan to'liq, ongli, yetarlicha aloqadorligini ta'minlash.

Shunday qilib, bo'lajak o'qituvchining reflektiv pozitsiyasining faoliyatli komponenti quyidagi reflektiv ko'nikmalar majmuini aniqlashga imkon berdi: kasbiy yo'naltirilgan o'quv faoliyati jarayonida shaxsning kasbiy-ahamiyatli sifatlarini belgilash va qo'llash qobiliyati;

o'quv jarayonini mustaqil ravishda tashkil qilish qobiliyati; kasbiy yo'naltirilgan o'quv faoliyatini nazorat qilish va baholashni ta'minlash qobiliyati; o'quvchilar bilan shaxslararo aloqalarni o'rnatish va kasbiy

yo'naltirilgan o'quv faoliyati jarayonida ijobiy pedagogik munosabatni ta'minlash qobiliyati; "Pedagogika" fanining o'ziga hos xususiyatlari haqidagi bilimlarini qo'llash va ularni uning xususiyatlariga moslashtirish orqali yangi maqsadli o'quv dasturlarini yaratish qobiliyati.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchilarda reflektiv pozitsiyani rivojlantirish mazkur jarayonga xos psixologik-pedagogik xususiyatlarni hisobga olish, reflektiv pozitsiyani qaror topishi uchun zarur komponentlar hamda ular bajaradigan funksiyalarni aniq belgilashni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qarshiyeva Zulfiya Shukurovna Bo'lajak o'qituvchilarda reflektiv pozitsiyani rivojlantirish. Monografiya "SamDCHTI" nashriyoti Samarqand – 2023.
2. Карпов А. В. Рефлексия в структуре метакогнитивной организации субъекта Рефлексивные процессы и управление. 2004 № 1
3. Akromov A.A. Shaxsga yonaltilgan ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarning fuqorolik pozitsiyasini rivojlantirishning tashkiliy-metodik asoslarini takomillashtirish. Pedagogika fanlari doktorkori. diss. T.2016.